KASBIY DEFORMATSIYA VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI O‘RNI

Abdumo’minova (Komiljonova) Hilolaxon Nazirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti
hilolakomiljonova05@gmail.com
Tel:+998507971997
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23887076

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiya muammosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada kasbiy deformatsiyaning mazmun-mohiyati, shakllanish sabablari hamda uning pedagog shaxsining kasbiy faoliyati va ta’lim jarayoni samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Shuningdek, kasbiy deformatsiyaning pedagogik muloqot, emotsional holat va kasbiy motivatsiyaga ta’siri ochib berilgan. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish va uni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvlar ilmiy adabiyotlar tahlili asosida bayon etilgan. Maqola xulosalari pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kasbiy deformatsiya, pedagogik faoliyat, pedagog shaxsi, emotsional charchoq, pedagogik muloqot, kasbiy salomatlik, ta’lim jarayoni, kasbiy motivatsiya.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется проблема профессиональной деформации, возникающей в процессе педагогической деятельности. В статье раскрываются сущность и содержание профессиональной деформации, причины её формирования, а также влияние данного явления на профессиональную деятельность личности педагога и эффективность образовательного процесса. Особое внимание уделяется воздействию профессиональной деформации на педагогическое общение, эмоциональное состояние и профессиональную мотивацию педагога. На основе анализа научной литературы изложены педагогико-психологические подходы к профилактике и преодолению профессиональной деформации. Выводы статьи имеют практическую значимость для обеспечения

профессиональной устойчивости педагогов и повышения качества образовательного процесса.

Ключевые слова: профессиональная деформация, педагогическая деятельность, личность педагога, эмоциональное выгорание, педагогическое общение, профессиональное здоровье, образовательный процесс, профессиональная мотивация.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the problem of professional deformation that arises in the process of pedagogical activity. The article examines the essence and content of professional deformation, the factors contributing to its formation, and its impact on teachers’ professional activity and the effectiveness of the educational process. Particular attention is paid to the influence of professional deformation on pedagogical communication, emotional state, and professional motivation. Pedagogical and psychological approaches to preventing and overcoming professional deformation are outlined on the basis of a review of the scientific literature. The conclusions of the article have practical significance for ensuring teachers’ professional stability and improving the quality of education.

Keywords: professional deformation, pedagogical activity, teacher’s personality, emotional burnout, pedagogical communication, professional health, educational process, professional motivation.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablarning murakkablashuvi, ta’lim jarayonining jadallashuvi hamda pedagogik faoliyatning yuqori darajadagi ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liqligi o‘qituvchilar faoliyatida turli psixologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ana shunday muammolar orasida kasbiy deformatsiya pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy deformatsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning uzoq muddat davomida bir xil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishi natijasida uning psixologik holati, xulq-atvori va munosabatlar tizimida yuzaga keladigan barqaror salbiy o‘zgarishlar sifatida talqin etiladi [1]. Pedagogik faoliyatda bu holat o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi, pedagogik muloqoti va o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Pedagog kasbi doimiy emotsional zo‘riqish, mas’uliyat, nazorat va ijtimoiy baholash sharoitida amalga oshirilgani sababli kasbiy deformatsiya xavfi yuqori bo‘lgan kasblar qatoriga kiradi [2]. Ayniqsa, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, raqamli ta’limga o‘tish jarayoni va yangi pedagogik yondashuvlar pedagog shaxsiga qo‘shimcha psixologik yuklama bermoqda. Mazkur maqolaning maqsadi kasbiy deformatsiyaning pedagogik faoliyatdagi o‘rnini aniqlash, uning asosiy sabab va oqibatlarini ilmiy tahlil qilish hamda ushbu holatni oldini olishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy deformatsiya muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. E. F. Zeer kasbiy deformatsiyani shaxsning kasbiy faoliyat ta’sirida shakllanadigan psixologik o‘zgarishlar majmui sifatida izohlaydi hamda uni kasbiy rivojlanish jarayonidagi salbiy holat sifatida baholaydi [2, 97–101-b]. Uning fikricha, pedagoglarda kasbiy deformatsiya ijodiy fikrlashning susayishi va stereotipik faoliyatning kuchayishi bilan bog‘liq [3, 115–118-b]. S. G. Gellershteyn: “Faol va reaktiv harakatlarni bajaradigan xodimda birinchi ruhiy deformatsiyalar, keyin tana deformatsiyalari uchraydi” [4] degan fikrni bildirgan.

A. K. Markova kasbiy deformatsiyani pedagog shaxsining professional rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida ko‘rib, uni emotsional charchoq va kasbiy motivatsiyaning pasayishi bilan izohlaydi [5, 73–78-b]. Muallifning ta’kidlashicha, pedagogik faoliyatda kasbiy deformatsiya o‘qituvchining kasbiy o‘sish sur’atlarini sekinlashtiradi.

Xorijiy tadqiqotchilar C. Maslach va M. Leiter kasbiy deformatsiya bilan yaqin bog‘liq bo‘lgan “burnout” — emotsional charchash sindromini o‘rganganlar [6, 42–47-b]. Ularning tadqiqotlarida emotsional holdan toyish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar hissining pasayishi burnoutning asosiy komponentlari sifatida talqin etilgan. Shu bois burnout kasbiy deformatsiyaning o‘zi emas, balki unga hamroh bo‘ladigan yoki olib keladigan holat sifatida qaraladi.

Rossiyalik olimlar T. L. Shabanova va A. M. Novikova pedagoglarda kasbiy deformatsiyaning shakllanishiga yuqori emotsional yuklama, mehnat jarayonining bir xillashuvi va ijodiy faollikning pasayishi sabab bo‘lishini ta’kidlaydilar [7, 120–124-b].

O‘zbekistonda kasbiy deformatsiya muammosi asosan pedagogik mahorat va kasbiy madaniyat kontekstida o‘rganiladi. N.A. Muslimov pedagog shaxsida kasbiy deformatsiya rivojlanishi ta’lim jarayonida rasmiylik va ijodiy yondashuvning kamayishiga olib kelishini ta’kidlaydi [8, 56–60-b].

E. F. Zeer va E. E. Symanyuk kasbiy deformatsiya muammosini kengroq “kasbiy destruksiyalar” tushunchasi doirasida o‘rganadilar [9].

Tahlil ko‘rsatadiki, mualliflarning aksariyati kasbiy deformatsiyani uzoq muddatli kasbiy faoliyat, emotsional zo‘riqish va faoliyatning bir xillashuvi bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, burnout kasbiy deformatsiya bilan o‘zaro bog‘liq, ammo u bilan aynan bir xil bo‘lmagan hodisa ekanini hisobga olish lozim. O‘zbekiston sharoitida bu muammo asosan pedagogik mahorat va kasbiy madaniyat kontekstida o‘rganilgani sababli, uni psixologik jihatdan chuqurroq tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik faoliyatda kasbiy deformatsiya bir necha asosiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, bu emotsional charchoq va psixologik holdan toyish holatlarining kuchayishi bilan ifodalanadi. Bunday holatda pedagog o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan befarqlikni his qila boshlaydi.

Ikkinchidan, kasbiy deformatsiya pedagogik muloqot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarda rasmiylik kuchayib, individual yondashuv susayadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi [10, 25–31-b].

Uchinchidan, kasbiy deformatsiya pedagoglarda ijodiy faollik va tashabbuskorlikning pasayishiga olib keladi. O‘qituvchi yangi metod va texnologiyalarni qo‘llashdan qochib, an’anaviy usullarga tayanib qoladi. Natijada pedagogik jarayonning innovatsion rivoji cheklanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kasbiy deformatsiyani kamaytirishda sog‘lom pedagogik muhit, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi va kasbiy refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lsa, deformatsion holatlarning oldini olish imkoniyati ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kasbiy deformatsiya pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan murakkab va ko‘p omilli psixologik hodisa

bo‘lib, u pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi va ta’lim jarayoni samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatni e’tiborsiz qoldirish pedagogik faoliyat sifatining pasayishiga olib keladi.

Kasbiy deformatsiyani bartaraf etish faqatgina psixologik muammo sifatida emas, balki pedagog shaxsining barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Tahlil natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Yangi pedagoglar uchun mentorlik tizimini joriy etish. Tajribali o‘qituvchilar bilan tajriba almashish orqali kasbiy stress va deformatsiya xavfini kamaytiradi.

2. Pedagoglarning ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlash uchun ish soatlari va dam olish tartibini optimallashtirish, kasbiy charchoq va burnoutni oldini oladi.

3. Maktab yoki ta’lim muassasasida ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini tashkil etish. Bu bevosita stressni kamaytiradi va pedagogning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

4. Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari, yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o‘rganish imkoniyatlarini yaratish. Bu esa ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

5. Pedagoglar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash, ya’ni, stressni boshqarish texnikalari va emotsional resurslarni tiklash mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish.

6. Pedagoglarning ruhiy va emotsional holatini baholash uchun maxsus testlar, so‘rovnomalar va intervyular asosida monitoring mexanizmini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Klimov E. A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. — M.: Nauka, 2018. — 56–60-betlar.

2. Zeer E. F. Psixologiya professionalnogo razvitiya. — M.: Akademiya, 2019. — 97–101-betlar.

3. Zeer E. F. Professionalnaya deformatsiya lichnosti. — M.: Yurayt, 2020. — 115–118-betlar.

4. Komiljonova H. N. K. Appearances of professional deformation of a teacher and its essence // International Conference Platform. — 2026, February. — No. 2. — pp. 15–18.

5. Markova A. K. Psixologiya professionalizma. — M.: Znanie, 1996. — 73–78-betlar.

6. Maslach C., Leiter M. P. The Truth About Burnout. — San Francisco: Jossey-Bass, 1997. — 42–47-betlar.

7. Shabanova T. L., Novikova A. M. Professionalnaya deformatsiya pedagogov. — M.: Prosveshchenie, 2021. — 120–124-betlar.

8. Muslimov N. A. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: Fan, 2018. — 56–60-betlar.

9. Zeer E. F., Symanyuk E. E. Psixologiya professionalnyx destruksiy. — M.: Akademicheskiy proekt, 2005.

10. Yankovskaya L., Naumova N. Pedagogicheskaya sreda i professionalnoe zdorove. — Tashkent, 2021. — 25–31-betlar.